

ЎЗБЕКИСТОНДА ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИ ВА ДИНИЙ ТАШКИЛОТЛАР БОРАСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИК





**“Ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади.
Ҳар бир инсон хоҳлаган динга эътиқод қилиш
ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга.
Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди”**



• муайян шахс худога ишониши, хоҳлаган динга эътиқод қилиши мумкин.



• худога ва динга ишонмаслиги, уларга нисбатан бетараф бўлиши мумкин.




• даҳрий, яъни ҳеч бир динга эътиқод қилмайгина қолмасдан, балки уларни инкор этиши мумкин.



Диний эътикод

Бирор кучга
ишонч

ЭЪТИКОД



Динга эътикод

КИЛИШ




Мўъжизаларга
ишонч



Яшаш
тарзи



Ибодат



Диний
акидага ишонч



Худого
ишонч

VIJDON ERKINLIGI VA DINIY
TASHKILOTLAR
TO'G'RISIDA

1-MODDA. USHBU QONUNNING MAQSADI

Ushbu qonuning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning yaaoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

2-MODDA. VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARI

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan, ushbu qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasida vijdon erkinligini va diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlashga oid munosabatlar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.



3-MODDA. VIJDON ERKINLIGI HUQUQI

Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi.

Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar.



4-MODDA. FUQAROLARNING DINGA MUNOSABATIDAN QAT'I NAZAR TENG HUQUQLILIGI

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dinga munosabatidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab ularning huquqlarini har qanday cheklash va ularga bevosita yoki bilvosita imtiyozlar belgilash, dushmanlik va adovat uyg'otish yoxud ularning diniy yoki dahriylik e'tiqodi bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlash, diniy ziyoratgohlarni oyoq osti qilish qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Hech kim diniy e'tiqodini ro'kach qilib qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli emas. qonunga muvofiq bajarilishi majburiy bo'lgan bir vazifani diniy e'tiqodi tufayli boshqasi bilan almashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.



5-MODDA. DINNING DAVLATDAN AJRATILGANLIGI

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

Davlat diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o'zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ'ibotiga oid faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi. O'zbekiston Respublikasida diniy mohiyatdagi siyosiy partiya va jamoat harakati, shuningdek respublikadan tashqarida tuzilgan diniy partiyalarning filiallari va bo'limlarini tuzishga va ularning faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shart. Dindan davlatga va konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo'xton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi.


Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, mansabdor shaxslarga tazyiq o'tkazishga qaratilgan har qanday urinish, shuningdek yashirin diniy faoliyat qonun bilan taqiqlanadi.



6-MODDA. DAVLAT ORGANLARINING VA FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DINIY TASHKILOTLAR BILAN O'ZARO MUNOSABAT BORASIDAGI VAKOLATLARI

Davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita zimmasiga yuklanadi. qo'mitaning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman va shahar hokimliklari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududlarda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarga rioya etilishi uchun qonun bo'yicha javobgardirlar.



7-MODDA. TA'LIM TIZIMI VA DIN

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi dindan ajratilgan. Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lim olish huquqi ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar ta'min etiladi.



8-MODDA. DINIY TASHKILOTLAR

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar) diniy tashkilotlar deb e'tirof etiladi.

Diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi.

Tegishli konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun ularning O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yagona markaziy boshqaruv organlari (bundayn keyin markaziy boshqaruv organlari deb yuritiladi) tuzilishi mumkin.

Markaziy boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasining kamida sakkizta hududiy tuzilmasida (viloyat, Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi) faoliyat ko'rsatayotgan, tegishli konfessiyalarning ro'yxatga olingan diniy tashkilotlari vakillari ta'sis yig'ilishi (konferentsiyasi) tomonidan tuziladi.

Diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari bo'lishlari mumkin. Diniy tashkilotlar rahbarligiga O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan shaxslarning nomzodi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishib olinadi.



9-MODDA. DINIY O'QUV YURTLARI

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli litsenziya o'rganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolar O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonuniga muvofiq umumiy majburiy o'rta ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy o'quv yurtlarida diniy fanlarni o'qitayotgan shaxslar diniy ta'lim olgan bo'lishlari va o'z faoliyatlarini tegishli markaziy boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshirishlari lozim.

Xususiy tartibda diniy ta'lim berish man etiladi.



10-MODDA. DINIY TASHKILOTNING USTAVI

Diniy tashkilotning ustavi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak:

diniy tashkilotning nomi, turi, joylashgan manzili, qaysi dinga mansubligi;

maqsadi, vazifalari va faoliyatining asosiy turlari;

faoliyatni tashkil etish va tugatish tartibi;

tuzilishi va boshqaruv organlari;

mablag'lari manbai hamda ushbu tashkilot ichidagi, shuningdek undan tashqaridagi mulkiy munosabatlar;

ustavga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish tartibi;

ushbu diniy tashkilotga taalluqli boshqa ma'lumotlar.

Markaziy boshqaruv organlariga ega bo'lgan diniy tashkilotlarning ustavlari mazkur boshqaruv organlari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.



11-MODDA. DINIY TASHKILOTLARNI RO'YXATGA OLIISH

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlarini ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan, boshqa diniy tashkilotlarni esa tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar adliya boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:
diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari bo'lgan, yuz nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi imzolagan ariza;

diniy tashkilotning ustavi;

ta'sis yig'ilishining bayoni;

tuzilayotgan diniy tashkilot joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;
ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organini ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

ta'sis yig'ilishi (konferentsiyasi)ning raisi va kotibi imzo qo'ygan ariza;

diniy tashkilotlar markaziy boshqaruv organining ustavi;

ta'sis yig'ilishi (konferentsiyasi)ning bayoni;

ta'sischilar vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar;

rahbar organ joylashgan manzilni tasdiqlovchi hujjat;

ro'yxatga olish yig'imi to'langani to'g'risidagi hujjat.



Diniy tashkilotlar hamda ularning markaziy boshqaruv organlarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran bir oylik muddatda ko'rib chiqiladi.

Adliya organlari qo'shimcha materiallar talab qilish olishga hamda tegishli organlarning ekspert xulosasini olishga haqli. Bunday holda qaror ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza berilgan kundan e'tiboran uch oylik muddatda qabul qilinadi.

Diniy tashkilotning ustaviga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgartishlar diniy tashkilotni ro'yxatga olish kabi tartib va muddatlarda ro'yxatga olinishi lozim.

Diniy tashkilotlar rahbarlarining tashkilot ustavini davlat organlaridan ro'yxatdan o'tkazishdan bo'yin tovlashi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

Diniy tashkilotning faoliyati o'z ustaviga muvofiqligini nazorat qilish diniy tashkiloti ro'yxatga olgan organ tomonidan amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tmagan diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.



12-MODDA. DINIY TASHKILOTI RO'YXATGA OLISHNI RAD ETISH

Agar diniy tashkilot ustavining qoidalari va boshqa hujjatlari ushbu qonun yoki O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining talablariga zid bo'lsa, uni ro'yxatga olish rad etilishi mumkin.

Diniy tashkilotni ro'yxatga olish rad etilganda rad etish asoslari ko'rsatilgan qaror yozma ravishda arizachilarga yuboriladi.

Diniy tashkilot tuzish tashabbuskorlari ustavlarini qonun hujjatlariga muvofiq holga keltirganlaridan so'ng, ustavni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza bilan tegishli tarzda

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yoki uning joylardagi organlariga qaytadan murojaat etish huquqiga ega.

Diniy tashkilotni ro'yxatga olishni rad etilganligi yoxud adliya organlari tomonidan ushbu qonun talablari buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.



13-MODDA. DINIY TASHKILOTNING FAOLIYATINI TUGATISH

Diniy tashkilotning faoliyati u o'zini o'zi tarqatib yuborganda yoki ushbu qonunning, shuningdek O'zbekiston Respublikasi boshqa qonun hujjatlarining qoidalari buzilgan taqdirda tugatilishi mumkin.

Diniy tashkilot faoliyatini tugatish to'g'risidagi qaror uni ro'yxatga olgan organ tomonidan qabul qilinadi. Ushbu qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.



14-MODDA. DINIY URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR

Diniy tashkilotlar ibodat qilish yoki diniy rasm-rusumlar o'tkazish uchun qulay joylar tashkil etish va ularni saqlab turish, shuningdek ziyoratgohlarni saqlab turish huquqiga egadir.

Ibodot, diniy rasm-rusumlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan manzildagi ibodatxonalarda va ularga tegishli hududlarda, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, zarur hollarda fuqarolarning ixtiyoriga binoan ularning uylarida o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, keksalar va nogironlar uylarida, dastlabki qamoq va jazoni o'tash joylarida ibodatlar va diniy rasm-rusumlar shu yerdagi fuqarolarning iltimoslariga binoan o'tkaziladi.

Diniy marosim va ibodat binolaridan tashqarida o'tkaziladigan ommaviy ibodatlar, diniy rasm-rusumlar va marosimlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning (diniy tashkilotlarning xizmatidagilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Diniy tashkilotlar dindorlar majburiy pul yig'implari va to'lovlar undirishga, shuningdek ularga nisbatan shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi choralarni qo'llashga haqli emas.



15-MODDA. DINIY TASHKILOTLARNING MULKI

Diniy tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan sotib olingan yoki yaratilgan, fuqarolar, jamoat birlashmalari ehson qilgan (vasiyat qilib qoldirgan) yoxud davlat tomonidan nazarda tutilgan boshqa asoslarda olingan, o'z faoliyatlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan binolar, imoratlar, ibodat qilish anjomlari, ishlab chiqarish, ijtimoiy va xayriya inshootlari, pul mablag'lari va boshqa mol-mulklar ularning mulki bo'lishi mumkin.

Diniy tashkilotlarning mulkiy huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi.



16-MODDA. DAVLAT MULKI BO'LGAN MOL- MULKDAN FOYDALANISH

Diniy tashkilotlar o'z ehtiyojlari uchun davlat organlari tomonidan shartnoma asosida beriladigan binolar va mulkdan foydalanishga haqlidir.

Tarixiy va madaniy yodgorliklar ob'ektlari va buyumlarini diniy tashkilotlarga foydalanish uchun berish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlar uchun yer ajratish hamda ibodat binolari qurish tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



17-MODDA. ISHLAB CHIQRISH VA XO'JALIK FAOLIYATI

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ustavdagi maqsadlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiy, noshirlik, ishlab chiqarish, ta'mirlash-qurilish, qishloq xo'jalik korxonalarini va boshqa korxonalarini, shuningdek xayriya muassasalarini (etimxonalar, kasalxonalar) ta'ris etishga haqlidir.




18-MODDA. FAOLIYATINI TUGATGAN DINIY TASHKILOTLARNING MOL-MULKINI TASARRUF ETISH

Diniy tashkilotlarning faoliyati tugatilgandan keyin ularga foydalanib turish berilgan mol-mulk o'z egalariga qaytariladi.

Diniy tashkilotlarning faoliyati tugatilgan taqdirda, ularga qarashli mol-mulkka egalik qilish ularning ustavi va qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Kreditorlarning talablarini qondirish uchun undirish qaratilishi mumkin bo'lmagan ibodatga oid mol-mulk ro'yxati diniy tashkilotlarning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Huquqiy vorislari bo'lmagan mol-mulk davlat mulki hisobiga o'tadi.




19-MODDA. DINIY ADABIYOT VA DINIY MAQSADLARGA MO'LJALLANGAN BUYUMLAR

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarkatishga haqlidir.

Chet elda nashr etilgan diniy adabiyotlarni olib kelish va tarqatish, ularning mazmuni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari tegishli litsenziya olgandan so'ng diniy ibodat buyumlarini ishlab chiqarish va tarqatish huquqiga faqat ular ega bo'ladilar.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan matbaa nashrlarini, kino, foto, audio, video mahsulotlarini va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.



20-MODDA. DINIY TASHKILOTLARNING XAYRIYA FAOLIYATI

Diniy tashkilotlar xayriya va mehr-
muruvvat faoliyatini amalga oshirishga
haqlidir.



21-MODDA. DINIY TASHKILOTLARDA MEHNATGA OID HUQUQIY MUNOSABATLAR

Diniy tashkilotlarda mehnat shartnomalari (kontraktlari) bo'yicha ishlayotgan fuqarolarga O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari tatbiq etiladi.



22-MODDA. DINIY TASHKILOTLARNING XALQARO ALOQALARI

Diniy tashkilotlar muqaddas joylarni ziyorat qilish yoki boshqa diniy tadbirlarda ishtirok etish maqsadida qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro aloqalar oʻrnatish va olib borishga haqlidir.



23-MODDA. VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO'G'RISIDAGI QONUN HUJJATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatdagilar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

